

TILSHUNOSLIKDA YORDAMCHI SO‘ZLARNING TAHLILI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-25-122-127>

Sunnat Abdunabiev Botirovich

Ilmiy maslahatchi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Sharq tillari kafedrasi o‘qituvchisi

Bekjon Safaraliev Sulaymon o‘g‘li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

“Xalqaro huquq” fakulteti talabasi

e-mail: bekjonsafaraliyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada turli tillarda, xususan, rus, o‘zbek va arab tillarida yordamchi so‘zlarning grammatik tizimdagini o‘rnini va vazifalari tahlil qilinadi. Yordamchi so‘zlar mustaqil so‘zlar bilan birgalikda grammatika tizimini shakllantirishda ishtirok etadi, ularning semantikasi grammatik ma’nolarni ifodalashda asosiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Maqolada ko‘makchilar, bog‘lovchilar, yuklamalar va artikllarning vazifalari tahlil qilinib, ular orqali ifodalanuvchi munosabatlar - makon, zamon, sabab, maqsad va boshqalar haqida misollar asosida fikr yuritiladi. Ayniqsa, arab tilidagi yordamchi so‘zlarning boshqaruv xususiyatlari, ularning kelishik shakllariga ta’siri hamda ifoda uslublari alohida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida uch tildagi lingvistik adabiyotlar solishtirilib, umumiylilik va farqlarga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: yordamchi so‘zlar, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, artikl, grammatik munosabat, arab tili, rus tili, o‘zbek tili, kelishik, suppozitsiya, boshqaruv.

Abstract: This article analyzes the role and function of auxiliary words in the grammatical systems of Russian, Uzbek, and Arabic. Auxiliary words, although not independent lexical units, play a key role in expressing grammatical meanings and structuring sentences. The study explores different types of auxiliary words—prepositions, conjunctions, particles, and articles—and illustrates how they are used to convey spatial, temporal, causal, and purposive relationships in each language. Particular attention is given to the Arabic language, where the limited use of case endings increases the importance of auxiliary words in expressing syntactic relations. Through comparative analysis, the study highlights both the similarities and differences in the use and classification of auxiliary words across the three languages.

Keywords: auxiliary words, prepositions, conjunctions, particles, articles, grammatical relations, Arabic language, Russian language, Uzbek language, case system, supposition, syntactic structure.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и функция вспомогательных слов в грамматических системах русского, узбекского и арабского языков. Вспомогательные слова, хотя и не являются самостоятельными лексическими единицами, играют важную роль в выражении грамматических значений и структурировании предложений. В исследовании анализируются различные типы вспомогательных слов — предлоги, союзы, частицы и артикли, — а также приводятся примеры выражения пространственных, временных, причинных и целевых отношений. Особое внимание уделено арабскому языку, где ограниченное количество падежей обуславливает широкое использование вспомогательных слов для выражения синтаксических связей. Сравнительный анализ позволяет выявить как общие черты, так и различия в употреблении и классификации вспомогательных слов в трёх языках.

Ключевые слова: вспомогательные слова, предлоги, союзы, частицы, артикли, грамматические отношения, арабский язык, русский язык, узбекский язык, падежи, суппозиция, синтаксическая структура.

Grammatik ma'nolar nafaqat so'zning ichida, balki uning tashqarisida, uning atrofida, avvalam bor, mustaqil so'zlarning yonida kelgan yordamchi so'zlar orqali ifodalanishi mumkin. Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlarni grammatikani ifodalashdan ozod qiladi yoki so'z o'zgartiruvchi affiksatsiyaga hamroxlik qiladi.¹ Bu o'z tarkibida grammatik ma'nolarni ko'rsatmagan mustaqil so'zlar grammatikadan tashqarida turadi degani emas, ular so'z turkumlari sifatida tilning grammatik tizimi ichida turadi. Yuqorida aytganimizdek, yordamchi so'zlar naminativ funksiyadan maxrumdir, chunki ular hech narsani nomlamaydilar va gap bo'laklari (uchun oldko'makchi va bog'lovchi vazifasida keladi) va gaplar (uchun bog'lovchilar vazifasida) o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatib, gapdagi so'z birikmasiga bog'liq bo'limgan ba'zi bir grammatik ma'noni ko'rsatadilar (artikllar, yuklamalar, yordamchi fe'llar, daraja so'zlari).

Yordamchi so'zlar aksariyat hollarda affiks vazifasini bajaradi, qiyoslang:

Ya xotel sogret sebya chayem / Men Moskvaga poyezdda bordim

bu yerda joy bilan to'ldiruvchining munosabati kelishik fleksiyasi bilan ifodalangan.

¹Reshetov V.V. Rus tili grammatikasi. –T.:O'qituvchi, 1976. –S. 134.

Ya xotel sogret sebya posredstvom kofe/ Men Moskvaga poyezd yordamida bordim

gapida esa xuddi shu narsa yordamchi so‘z, ya’ni *posredstvom/yordamida* kabi rus tilidagi predlog, o‘zbek tilida esa yordamchi so‘z bilan ifodalangan. Yoki:

Masha krasivee Natasha i Masha bolee krasiva, chem Natasha / Masha Natasha dan chiroyliroq va Masha Natasha ga qaraganda chiroyliroq.

Agar rus tilida *mushuk* so‘zi gapning boshqa bo‘laklariga nisbatan kelishik fleksiyalari bilan ifodalansa: *kot, kota, kotu, kotom/mushuk, mushukning, mushukka, mushuk bilan* va x.k., fransuz tilida otlarning tuslanishi yo‘q bo‘lganligi sabab, xuddi shu grammatik aloqalar old ko‘makchilar yoki ularning yo‘qligi bilan ifodalanadi. Masalan, *Ie chat* – “mushuk” (ko‘makchisiz artikl bilan), *du chat* – “mushukning”, *ai chat* – “mushukka” (old ko‘makchi bilan), *par Ie chat* – “mushuk bilan” (old ko‘makchi artikl bilan).

“Munosabatlar grammatik bo‘lmasligi ham mumkin. Bunday holatda ular asosiy so‘z bo‘lib kelganda leksik bo‘ladi, alohida aniq bir so‘z bilan kelsa, so‘zning asosiy semantikasida bo‘ladi. Grammatik bo‘lishi uchun munosabat ma’nolari so‘zlarning asosiy, aniq, markaziy ma’nolari yonida qo‘srimcha, shu so‘zlarning tarkibida bo‘lishi lozim; faqatgina bu sharoit bo‘lganida ular grammatik tuzilma uchun zaruriy umumiylilikka egadir. Aslida ham agarda *na* ko‘makchisi alohida so‘z bo‘lib, prefiks bo‘lmasa, uning makon, zamon va boshqa munosabatlarni ifodalovchi ma’nolari uning asosiy ma’nosini bo‘lib, u aniq bir so‘z bilan kelsa, bu ma’no *pod, pri* kabi bo‘ladi. Bu leksik so‘z ma’nolari mavhum tarzda tushunilmaydi”².

Ba’zi bir lingvistlar ularni morfema so‘zlar deb ataydilar, bu leksika uchun ma’lum asosga ega. Biroq grammatika uchun alohida tushuntirishlarni talab qiladi, o‘ylaymizki, bu aslida morfema emas, bular so‘zdir³.

Bu mulohaza masalani oxirigacha ham yechib bermaydi, albatta munosabatlar leksik jihatdan ham ifodalanishi mumkin. Masalan:

pozdnee/kechroq, ranshe/ertaroq, вышe/yuqoriroq, nije/pastroq, luchshe/yaxshiroq ravishlarida va xattoki, ot so‘z turkumining har qanday kelishik shaklida: *lyublyu mat/onamni yaxshi ko‘raman, otdam materi/onamga beraman, gorjus materyu/onamla faxrlanaman*. Ammo bu yerda grammatik munosabatlar leksik uslubda emas, grammatik uslub bilan ifodalandi, ya’ni affikslar almashadi, leksik munosabatlar esa negizlarda ifodalandi. Albatta biz bu yerda nogrammatik turdagи munosabatlar haqida so‘z yuritmayapmiz (*ya lyublyu/men sevaman, ty*

² Smirnitskiy A. I. K voprosu o slove (problema “tojdestva slova”) // Trudy instituta yazykoznanija AN RF, 1954. – S.4.

³ Ibid.

nenaqidish/ sen nafratlanasan va x.k.), boshqasi bu – yordamchi so‘zlar. Ularning leksik ma’nosи grammatik ma’nosи bilan bir xildir, ya’ni yordamchi so‘zlarda grammatik funksiya ularning leksik tabiatini yutib yuboradi deyish mumkin, ammo bu ham hammasini tushuntirmaydi. Bu yerda gap sonlardagidek buyum va tushunchaga bo‘lgan munosabatlardadir, ya’ni nomlashga munosabat va munosabatlarni ifodalashdadir. Sonlarda “nomlanayotgan narsa” yo‘qdir. Shuning uchun ular ifodalayotgan tushuncha o‘ziga xos “narsa” bo‘lib qoladi, ularni sonlar nomlaydi; yordamchi so‘zlar ham leksik jihatdan ifodalayotgan munosabatini nomlaydi. Bu suppozitsiya deb ataladi⁴. *Suppóziiya* – lotincha *suppositio* – “podkladka/taglik”. Yordamchi so‘zlar orasida quyidagilarni ajratish lozim:

1. Old ko‘makchilar, ular gap bo‘laklari orasida tobe munosabatlarni ifodalaydi, *masalan*:

yedu v metro/metroda ketayapman, jdu u metro/metro yonida kutayapman, poydu k metro/metroni oldiga boraman, hamda: poshel k sestre/opasining yoniga ketdi, glyaju na tebya/senga qarayapman, znakom s ney/u bilan tanish

yoki kelishik ma’nolarini aniqlab beradi, masalan:

u nego/unda, za nego/u uchun, ot nego/undlan; v nem/uning ichida, na nem/uning ustida, o nem/ u haqida va x.k.

Ko‘makchilar quyidagi munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi: makon (*v/ichida, na/ustida, nad/ustida, za/orqasida, u/yonida, atrofida* va x.k.), zamon (*do/gacha, posle/keyin, pered/oldida* va x.k.), maqsad (*dlya/uchun*), sabab (*iza/tufayli, blagodarya/tufayli, vsledstviye/oqibat*) va x.k.z.

Prefikslar yo‘q tillarda odatda, old ko‘makchilar ham bo‘lmaydi, ularning o‘rnini ort ko‘makchilar egallaydi, ular old ko‘makchi vazifasini bajaradi, biroq so‘zdan keyin turadi. Masalan, rus tilidagi tramvaydagi “Mesto dlya detey” yozuviga o‘zbek tilidagi quyidagi yozuv mos: *Joy balalar uchun, uchun* bu yerda ort ko‘makchi.

2. Bog‘lovchilar, sodda va qo‘shma gapda teng bog‘lanish ma’nolarini ifodalaydi, masalan:

- biriktiruvchi - *i, da* [də] / va ;
- zidlovchi: *a, no, da* [dθ] / ammo, lekin, biroq;
- ayiruv: *ili – ili; li – li; libo – libo* /yoki /yoxud va x.k.).

Qo‘shma gapda *chto/....ki, kak/qanday, kogda/qachon, chtobы/uchun* tobe aloqani ifoda etadi (sodda gapda bu munosabatlarni old ko‘makchilar ifodalaydi). Bog‘lovchilar murakkab ham bo‘lishi mumkin: *potomu chto/chunki, v sluchaye*

⁴ Ibid.

yesli/agar bo'lsa, nesmotrya na to chto/....ga qaramasdan va x.k. va juft *yesli – to/agar unda, xotya – odnako/ biroq, ammo* va x.k.

3. Yuklamalar quyidagi ma'nolarni anglatadi:

a) *modál ma'nolar, ya'ni so'zlovchining o'zi ifodalayotgan gapiga bo'lgan munosabati, masalan, tasdiqlash (je, ved, da [de] / axir); inkor (ne, ni/yo'q emas); savol (li/..mi); shartlilik (by/...sa); undash (push, pushay, davay-ka/kel, qilsin,); istak (xotya by, lish by/ bo'lganda edi); shubha (de, mol, yakovy/emishki);*

b) *nomodál ma'nolar, masalan: cheklovchi (tolko, lish, odin, odna, odno, odni, isklyuchitelno, yedinstvenno/faqat); aniqlovchi (imенно, прямо, как раз, тоch-v-toch/aynan); ko'rsatish (вот, von, eto, to, ta, tot, te, tam, togda/ана, mana, bu yerda); noaniq (что-libo, -nibud, угодно/nima bo'lsa ham va koye-chto/ biron bir narsa olmoshlarda); qo'shish (то же, takje, itak, vse, yeye/hamda, yana); yaqinlik ma'nosi (пochti, chut ne/salkam); ajratuvchi (a, i, i je, da, daje, vse, yeye/hamma barcha, xatto va x.k.).*

4. Artikl. Artikllar hamma tillarga ham xos emas, ular arab, roman va german tillarida zarurdir. Yordamchi so'zlar nazariyasi uchun artikllar juda ham muhimdir, ular gap bo'laklari o'rtasidagi munosabatlarni ifodalamaydilar, tilning sintaktik shakllarini yasamaydilar, ammo mustaqil so'zlarning "grammatik hamroxlarining" eng tipik namunalaridir. *Artikl* – fransuzcha *article*, lotincha *arliculus* – "a'zo", "bo'lak" so'zidan olingan.

Yuqorida yordamchi so'zlar masalasining rus, o'zbek tili grammatikasida yoritilishi bilan qisman tanishdik. Chunki tadqiqotning mavzusi arab tilidagi yordamchi so'zlar masalasıdır. Ma'lumki, arab tilida yordamchi so'zlar muhim o'rinni egalaydi. Ushbu tilda kelishiklar soni juda oz bo'lganligi sababli predmet, voqeа-hodisaning vaqtga, o'ringa munosabati, chegaralanish va boshqa turli munosabatlar asosan yordamchi so'zlar yordamida ifodalanadi.⁵ Arab tilida yordamchi so'zlarning o'ziga xos jihatı qaysi so'zga bog'liq bo'lsa o'sha so'zdan oldin keladi, masalan:

رَفَضَتْ جَمِيلَةُ الْذَّهَابَ مَعَنَا إِلَى السُّوقِ –

Jamila biz bilan bozorga borishni rad etdi.

Arab tilidagi jumlada *إِلَى السُّوقِ* iborasi *bozorga* ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida bu ibora jo'naliш kelishigi yordamida beriladi, arab tilida esa bu kelishik *إِلَى* yordamchi so'zi yordamida ifodalanmoqda. Bu yordamchi so'z o'zidan keyingi so'zni qaratqich kelishigida, ya'ni jarr holatida kelishini talab qilmoqda, boshqacha aytganda boshqarmoqda. Yordamchi so'zlarning shu kabi boshqaruvini o'rganish

⁵ Qurang: Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997. 55-b.

va tasniflash maqsadida rus, o'zbek va arab tilshunoslarinnig asarlariga murojaat qildik.

XULOSA

Yordamchi so'zlar tilshunoslikda mustaqil leksik birlik bo'lmasa-da, ularning grammatik tizimdagи o'rni beqiyosdir. Ular nafaqat grammatik munosabatlarni ifodalash, balki gap tuzilmasini tartibga solish, sintaktik aloqalarni ifodalash, semantik ma'no nozikliklarini yetkazish vositasi sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, rus va o'zbek tillarida yordamchi so'zlar affiksiyaga hamroh bo'lib keladi, arab tilida esa ular ko'pincha boshqaruv usuli bilan grammatik ma'no ifodalaydi. Har bir til yordamchi so'zlarni o'z sintaktik ehtiyojlari va morfologik tuzilishiga mos holda shakllantirgan. Shunday qilib, yordamchi so'zlarning tahlili grammatik kategoriyalar, til strukturasi va semantik munosabatlarni chuqur tushunishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. –Т.: Ўзбекистон миллый энсиклопедияси, 1997.
2. Smirnitskiy A. I. K voprosu o slove (problema "tojdestva slova") // Trudy instituta yazykoznaniya AN RF, 1954
3. Reshetov V.V. Rus tili grammatikasi. –T.:O'qituvchi, 1976.
4. Abdunabiev S. B. THE LEXICOLOGICAL AND SEMANTIC CHARACTERISTICS OF THE WORDS ENTERED INTO UZBEK FROM ARABIC //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 68-70.
5. Abdunabiev S. B. ARAB TILIDAN O'ZBEK TILIGA O'ZLASHGAN SO'ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI //ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O'RNI. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 94-97.
6. Abdunabiev S. B. Terminology in Arabic linguistics //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 11. – C. 285-290.
7. Abdunabiев S. B., Sotiboldiev S. ARABIC PROVERBS AND ADAGES IN THE IMPERATIVE MOOD //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2025. – T. 5. – №. 20. – C. 422-426.